ЎзДЖТУ буйруғи 73

15.03.23

**Talaba va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-mart 48-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

Oliy ta’lim muassalarida tahsil olayotgan talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-innovatsion, sport va ko‘ngilochar tadbirlarini tashkil etish, bu boradagi ishlarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-martdagi 48-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

**B U Y U R A M A N**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-martdagi 48-sonli buyrug‘i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Barcha prorektorlar, boshqarma, bo‘lim boshliqlari, Universitet yoshlar yetakchisi (M.Muydinov) va barcha fakultet dekanlariga;

2.1. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-innovatsion hamda sport tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda – Chora-tadbirlar rejasi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin;

2.2. Tasdiqlangan Chora-tadbirlar rejasining har bir bandi bo‘yicha vazifalarni ijrosi belgilangan mas’ullar tomonidan o‘z vaqtida va yuqori saviyada tashkil etib borilsin;

3. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (H.Hakimov), Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (S.Abdullayev), Bosh hisobchi (G‘.Sharipov) va Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (T.Kim)larga:

3.1. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish doirasidagi barcha xarajatlar universitetning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan o‘rnatilgan tartibda qoplab berish choralari ko‘rilsin.

4. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (H.Hakimov)ga;

4.1. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan ta'lim va o'quv targ'ibot, ma'naviy-ma'rifiy, sport va ko'ngilochar tadbirlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlashtirib borilsin.

5. Imiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (G.Bakieva)ga:

5.1. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan ilmiy va innovatsion tadbirlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar muvofiqlashtirib borilsin.

6. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (H.Hakimov), Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor (S.Abdullayev) va Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (G.Bakieva)larga:

6.1. Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida vazirlikning tegishli bo'limlariga kechiktirmasdan taqdim etib borilsin.

7. Universitet matbuot kotibi (O.Ibragimov)ga:

7.1. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar bo'yicha amalga oshirilayotgan barcha tadbirlarni universitet veb sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida keng yoritib borilsin.

8. Devonxona mudirasi F.Turayevaga:

8.1. Mazkur buyruq qonunchilikda belgilangan tartibda mas'ullarga yetkazilsin.

9. Mazkur buyruq nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

**Rektor v.v.b** **B.Kulmatov**

ASLIGA TO'G'RI